Volume 2, Issue 2,2024

PRAGMALINGVISTIKADA PRESUPPOZITSIYANING LINGVISTIK VOSITALAR BILAN IFODALANISHINI

Qo‘ziboyeva Go‘zal Saidrasul qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxassisligi I kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalariga e’tibor qaratilgan. Pressuppozitsiya hodisasining o‘rganilishi va o‘zbek tilshunosligiga yangi soha sifatida kirib kelishiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Pragmatikaning tarkibiga kiruvchi presuppozitsiya hosisasining nazariy asoslari haqida fikr yutilgan. Presuppozitsiyaning lingvistik vositalar yordamida ifodalanishi badiiy asarlardan olingan qisqacha matn va gaplar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Pragmatika, presuppozitsiya, lingvistik presuppozitsiya, nutqiy vaziyat, yashirin hukm, so‘z turkumlari, lingvistik vositalar, morfologik tahlil.

Abstract. This article focuses on the issues of modern linguistics. The study of the phenomenon of presupposition and its entry into Uzbek linguistics as a new field are emphasized. The theoretical foundations of the concept of presupposition, which is a part of pragmatics, are discussed. The expression of the presupposition using linguistic means is expressed in the analysis through short texts and sentences taken from works of art.

Keywords: Pragmatics, presupposition, linguistic presupposition, speech situation, implicit judgment, analysis of word groups, linguistic analysis, morphological.

Kirish. (Introduction). Presuppozitsiya hodisasining o‘rganilish tarixi nemis mantiqshunos faylasufi G.Frege nomi bilan bog‘liq. G.Frege presuppozitsiya tushunchasini ilmga olib kirgan bo‘lsa ham, presuppozitsiyaning nazariy masalalari ingliz olimlarining harakatlari asosida yuzaga kelgan. Presuppozitsiya G.Frege, Ye.Xill, J.Kats, P.Postal, Ch.Filmor, P.Stroson, Mak-Kolli, Xomskiy, Dj.Lakoff, L.Morgan, R.Xorn, O.Dyukro, D.Frank, K.Ebert, N.Rizer, F.Kifer, Toyn A.van Deyk, I.Ballert, Dj.Ostin, St.Xempshayr, Ch.Osgud, P.Kiparskiy, K.Kiparskiy kabi chet el olimlarining terli ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topdi. Lekin bu ishlarda pressupozitsiya hodisasining tadqiqi bir xilda emas edi. Rus tilshunosligida N.D.Arutyunova, Ye.V.Paducheva, V.A.Zvegentsev, N.A.Toropovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida presuppozitsiya hodisasi o‘ziga xos yo‘nalishda o‘rganildi. O‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning harakatlari tufayli bu hodisaning tadqiqi boshlandi.

Presuppozitsiyaning o‘rganilishida har bir muallifning o‘ziga xos yondashuvini ko‘rish mumkin. Bunday yondashuvni pressupozitsiya hodisasiga berilgan ta’riflarda va tasniflarda uning tabiatini ifodalaganini anglashimiz mumkin. Ularning barchasida gapning to‘g‘ri qo‘llanilishi va to‘g‘ri anglanishi uchun zarur bo‘lgan va oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar, kontekst va vaziyatni o‘z ichiga olish xususiyatidan kelib chiqgan holda tadqiq etiladi. Bunday har xillikni, bizningcha shu hodisaning o‘zidan qidirish kerak bo‘ladi. Chunki presuppozitsiya hodisasi nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, har qanday gapda u yoki bu tarzda mavjud bo‘ladigan murakkab hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiya gapning to‘g‘ri qo‘llanishi va to‘g‘ri anglanishi uchun zarur bo‘lgan va so‘zlovchi hamda tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar, kontekt, vaziyat kabi murakkab elementlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham keng ko‘lamda o‘rganilishi kerak bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Shuning uchun qator olimlar dastlab bu hodisaning tasnifi bilan qiziqqanlar. Agar presuppozitsiya har bir sathda mavjudligini hisobga olgan holda tasnif qilinsa, maqsadga

muvofiqdir. Yoki bu hodisa elementlari hamda unga ishora qiluvchi vositalar talqinida ham chalkashlik yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). O‘zbek tilida yaratilgan asarlarni tahlil qilish orqali o‘zbek tilshunosligida presuppozitsiya hodisasini A.Nurmonov tadqiq qildi. Presuppozitsiya va gap mavzusini talqin etishni N.Mahmudov o‘rtaga tashladi.

U.Rahimov tadqiqotida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarni quyidagicha tasniflaydi:

I. Lingvistik vositalar: Morfologik vositalar.

So‘z turkumlari:

1. Ot so‘z turkumi va undagi kategoriyalar:

A) kelishik kategoriyasi;

B) o‘xshatish, funksional shakllari.

2. Sifat so‘z turkumi.

3. Olmosh so‘z turkumi

4. Ravish so‘z turkumi

5. Yuklamalar

6. Ko‘makchilar.

II. Sintaktik vositalar:

So‘roq gaplar

O‘xshatishli qurilmalar ishtirok etgan gap

So‘z tartibi

III. Porosodik vositalar.

Lingvistik vositaga yordamchi vositalar:

IV. Ekstralingvistik vositalar:

Hayotda mavjud bo‘lgan turli situatsiyalar

Paralingvistik vositalar

Sotsial vositalar.

U. Rahimov presuppozitsiyaga yo‘l ochuvchi leksik vositalarga omonim, sinonim va antonim so‘zlarni, morfologik vositalarga ma’lum so‘z turkumlaridagi kategoriyalarni hamda ko‘makchi va yuklamalarni kiritadi. Sintaktik vositalar sifatida so‘roq gaplar, o‘xshatishli qurilmalar hamda so‘z tartibini ko‘rsatadi. Uning boshqa ishida “presuppozitsiyaning lisoniy ko‘rsatkichlari – fonema, morfema, leksema, so‘z shakl, so‘z birikmasi, gaplar ishorasi” tarzida belgilanadi.

Lingvistik presuppozitsiya asosiy hollarda tilda amal qiluvchi tejash tamoyili asosida yuzaga chiqadi. N.Mahkamovning qayd etishicha, tejamlilik o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda leksik yoki grammatik ma’no bajarayotgan birlik vazifasi shu birliklar majmuasidagi boshqa

birlikka yuklatiladi. Natijada vazifa bajarmayotgan birlik majmua (so‘z, birikma, gap) tarkibidan chiqariladi va nisbatan shakliy ixchamlik vujudga keladi.

Tahlil, natijalar va metodlar (Analysis, results and method). Presuppozitsiya hodisasi tilshunoslikning barcha bo‘limlarda hozirgacha to‘liq holatda o‘rganilmaganligini inobatga olgan holda, tilshunoslik sohasida hali o‘z yechimini topmagan, o‘rganishni talab etayotgan muommolar, hali ishlanishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Tilshunoslik sohasidagi olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida bu munozaraga sabab bo‘luvchi vaziyatlar o‘z yechimini topmoqda. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan o‘zbek tilshunosligidagi presuppozitsiya hodisasi ham hali o‘rganilmagan masalalardan biridir. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab til birliklarini pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Bu borada ayniqsa, gap tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlarda presuppozitsiya hodisasiga e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lum bir fan taraqqiyoti davrida turli metodlar maydonga keladi. Shu metodlar esa fan taraqqiyotini belgilaydi. Shuning uchun ilmiy izlanishlar yagona metod asosida talqin etilmaydi, balki shu fan taraqqiyot bosqichida qo‘lga kiritgan metodlari majmuasi sifatida maydonga keladi. Metodlarning majmuasini esa tadqiqot ob’ekti va uning o‘ziga xos qirralari belgilaydi. presuppozitsiya hodisasining boshqa tillarda o‘rganilganligini hisobga olib, o‘zbek tili materiallarini boshqa tillarda o‘rganilgan materiallarga qiyoslash asosida xulosalar chiqardik. Ishning o‘rganish ob’ektini o‘zbek tili materiallari asosida yoritishda tilning sistemalilik printsipidan kelib chiqib yondashildi. Yuklamalar ishtirok etgan gaplar va yuklamalar anglatgan presuppozitsiyalar transformatsion metod asosida talqin etildi.

Morfologik vositalar yordamida presuppozitsiyaning ifodalanishi.

Ot so‘z turkumi va uning kategoriyalari.

“Ukam Zafarbek, sen o‘zingni qo‘lga ol, pochcham negadir shivirlab tez-tez gapira boshladi. (Uka –yoshga nisbatan kichikligi ifodalangan, shaxs oti, pochcha – ushbu gapdan Zafarning opasi borligi va uning eri ekanligi ifodalanmoqda, bunda shaxs oti orqali pressupozitsiya anglashilmoqda). (X. To‘xtaboyev “Mungli ko‘zlar” 38 bet).

Majruh akam ertaklardagi ajdahoga o‘xshab xazinani bosib o‘tirgan ekan. (aka – undan kichik ukase ham borligi anglashilmoqda, – shaxs oti orqali ifodalangan presuppozitsiyani ko‘rishimiz mumkin) (X. To‘xtaboyev “Mungli ko‘zlar” 46 bet).

Sifat so‘z turkumi. “Adolat kelib, yotoqxona ham toza bo‘lib qoldi” (A.Muxtor) gapida toza so‘zi “Avval yotoqxona iflos bo‘lgan” degan presuppozitsiyaga ishora qilmoqda. “Toza” so‘zining gap ichidagi mazmuniy hususiyatidan “kirlik” to‘g‘risidagi presuppozitsiya anglashilishi mumkin. Presuppozitsiya sifat turkumi bilan ifodalanmoqda.

Olmosh so‘z turkumi. Yana Nafisa Murodga nimadir dedi? (“Sharq yulduzi”) gapida yana yuklamasi va nimalar? so‘roq olmoshi alohida holda qo‘llanilgan va ikkalasi ham alohida-alohida presuppozitsiyaga ishora qilmoqda. 1. Birinchi presuppozitsiya — “Nafisa Murodga avval ham nimadir degan” - yana yuklamasi orqali, ikkinchi presuppozitsiya “Nafisa Murodga nimadir aytgan” - nimadir? So‘roq olmoshi orqali anglashilmoqda.

Yuklama. Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da (A.Qodiriy “O‘tgan kunlar”). (presuppozitsiyalari toshkentlik kelinimiz go‘zal, marg‘ilonlik kélinimiz ham go‘zal; ammo buni, boshqa ma’noda, ham tushunish mumkin. Ushbu propozitsiya Marg‘ilonda ham go‘zal qizlar bo‘lar ekan-da mazmunida ham ifodalanishi mumkin. ham - yuklama).

Vazira bugun ham shunday ahvolda tong ottirdi (S.Zunnunova. Go‘dak hidi. 127-bet) gapida gapning mavjud, bo‘laklari orqali ifodalangan ochiq propozitsiya — Vazira bugun ham shunday ahvolda “tong ottirgan”ligi; presuppozitsiya — Vaziraning ahvoli avvalgi kunlari ham bugungiday ekanligi. Bu gapda Vaziraning tong ottirishdagi holati davomiy, ya’ni avvalgi kunlaridagi holat bugun ham takror bo‘lganligiga ham yuklamasi va payt bildiruvchi “bugun” so‘zlari ishora qilayapti.

Ko‘makchi. Nemislarning mo‘jlajiga ko‘ra, bu tepalikda bomba tushmagan biror qarich ham yer qolmasligi kerak edi (A.Qahhor) gapida “ko‘ra” ko‘makchisi jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan birikib, ayirib, ta’kidlab ko‘rsatish ma’nosini ifodalayapti va huddi shu munosabatdan kelib chiqadigan bo‘linsa, nemislar avval mo‘ljal qilgan degan presuppozitsiyaga ishora qiladi.

Presuppozitsiya shaklan soddalashgan sintaktik birliklarni mazmunan murakkablashtiradigan omildir. Bu jihatdan sodda gapning grammatik qoliplari uning semantik mundarijasi bilan o‘zaro nomuvofiqdir. Demak, axborot uzatish jihatiga ko‘ra, sodda gaplarning presuppozitsiyasi qo‘shma gaplar propozitsiyasiga son jihatdan tengdir. Masalan, Mahmud javob berdi. (T. Malik) propozitsiyasi o‘z-o‘zidan Asadbek so‘radi degan ikkinchi propozitsiyani talab qiladi. Bu sintaktik birliklar Asadbek so‘radi va Mahmud javob berdi qo‘shma gapiga teng.

Xulosa. Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy uzvlaridan biridir. Presuppozitsiya implikatsiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va matn ichidagi gaplarning umumiy bog‘lanishini ta’minlovchi hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiya “inson – olam” umumiy sistemani yuzaga keltiruvchi va bu sistemada tilning falsafiy, psixologik, sotsiologik tomonlarini birlashtiruvchi universal hodisadir.

Presuppozitsiya hukmning tabiiy asosi sifatida so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilish fondi hamda ularning o‘zaro shartnomasi asosida yuzaga keluvchi murakkab hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiya — gap tarkibidagi maxsus ishora vositalari orqali yuzaga chiqad iva tekst qurilishida dialektik bog‘lanishni hosil qiladi.

Anglashiladiki, presuppozitsiya tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq ob’ekti haqidagi umumiy bilimlari tushunchalari bilan zich bog‘lanadi va gapning semantik tuzilishi bilan bog‘liq hodisa sifatida maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1 Звегенцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. М., 1976. стр.216-226. Т.ван Дейк. Вопросы прагматики текста; Ф.Кифер. О пресуппозициях. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. М., 1978.

2 Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиция в лингвистике. «Известия АН СССР». Серия лит. и языка. 1973. I- 32, №1.стр85. Предложение и его смысл. М., 1976

3 Падучева Е.В. О понятие презумции в лингвистической семантике. В кн.: Семиотика и информатика. 8, -М., 1977

4 Звегенцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи

5 Торопова Н.А. Положительный противочлен отрицания niht в современном немецком языке (прессупозиция отрицаний). Филологической науки. М., 1978.

6 Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1986. 6-сон. 28-б. Ўзб.тили синтаксисининг долзарб масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1990.

7 Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси. «Ўзбек тили ва адабиёти». 1986.

8 Нурмонов А. Сигнификативная оппозиция синтаксическая конструкция утвердительность и отрицательность. Автореф.докт.дисс. Т., 1985

9 Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Ном.дис. Самарқанд 1994

10 Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. - Тошкент. 2004.

11 Маҳкамов Н. Лисоний ортиқчалик ва тежамлилик натижасида вужудга келган десемантизация // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент. - 2002.

12. Хужамкулова М. Б. Содда гапда коммуникация ва прагматика муносабати. –Т.: 2022.

